

MAQOL VA MATALLAR: TILSHUNOSLIKNING ASOSIY ELEMENTLARI

Jasmina Akmaljonova
Qarshi DU I-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola maqollarining tilda tutgan o'rni, shuningdek, ularning lingvistik mohiyatini ochishga va frazeologik klassifikatsiyaga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologik tasnif, qatlam, turg'un birikma, semantik tasnif.

Tilshunoslikning frazeologiya bo'limi asosan frazeologizmlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Frazeologizm – ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, semantik jihatdan mustahkam bog'langan so'z birikmasi bo'lib, u lug'aviy birlik hisoblanadi. Frazeologizmlar tilda tayyor holda mavjud bo'lgani sababli, ular nutq hodisasi emas, balki til hodisasi sifatida ko'riladi. Maqollar va matallar frazeologiyaning ajralmas qismi bo'lib, ularning lingvistik mohiyatini tahlil qilish va kelib chiqish xususiyatlarini o'rganish frazeologik klassifikatsiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Zero, nutqimizni tilda mavjud maqol va matallarsiz tasavvur qilish qiyin. Binobarin, maqol va matallar til frazeologik sistemasining har tomonlama eng boy va eng serqirra manbai bo'lib hisoblanadi.

Barcha tillarda leksik hamda frazeologik qatlamlar mavjud. Frazeologik qatlam va uni o'rganuvchi soha frazeologiya deb ataladi. Shuning uchun ham frazeologiya doirasida so'zlarning turg'un birikmalardan tashqari maqol, matal, aforizmlarni olimlar tomonidan turli tasnif qilishga urinishlar ham mavjud.

Demak, tilshunoslikda har bir tilning lug'at tarkibi leksik va frazeologik qatlamlardan iborat va lug'at tarkibidagi frazeologik qatlam frazeologiya sohasi deb yuritiladi va tilshunoslikning mustaqil yo'nalishlaridan biridir. Frazeologiya hozirgi zamon tilshunosligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, har bir tildagi turg'un birikmalarning ma'nosi va tuzilishini o'rganadi.

Ulug' lingvist olim Sharl Balli tilshunoslik sohasiga oid bo'lgan frazeologiya tushunchasiga dastlabki izohni bergandan so'ng, tilshunoslikda Sh. Balli qarashlariga tayanib, frazeologiya tilshunoslikning tadqiqot ob'yektiga asosiy ko'mak beruvchi ilmiy qarash ekanligini kuzatishgan.

Turli tillar singari nemis va o'zbek tillarida juda ko'p o'tkir tig'li, obrazli frazeologik birikmalar mavjud. Frazeologiya sohasi nimani o'rgatishini tushunmoq uchun quyidagi misolga murojaat etaylik. Masalan, nemis tilida: „Anna ist das Herz der Gruppe.“ – “Anna guruhning yuragi” deb tushunmoq va tarjima qilmoq kerakmi? Yo'q, albatta! Agar kimdir biror jamoada muhim rol o'ynasa yoki boshqaruvchi bo'lsa, “Sie ist das Herz der Gruppe” deyiladi.

Frazeologizmlar tilda bir necha yuz yillardan buyon mavjud bo'lib, ko'pgina iboralar og'izdan-og'izga ko'chib har bir milliy tilning ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlar emotsionallikni ifodalagani uchun ham ular yordamida quvnoq hazilni yoki qayg'uli voqeani obrazli tasvirlab berish mumkin. Shuning uchun ham ba'zi olimlar, frazeologik birlik deb so'zlarning barcha turg'un birikmalarini emas, shulardan ba'zi bir qismlarigina tan oladilar. Frazeologik birlik bo'lishi uchun so'zlarning turg'un birikmalari obrazli ma'no, ya'ni ko'chma ma'no anglatgan bo'lishi lozim. Demak, frazeologik birlikda ma'no uning tarkibidagi so'z komponentlariga xos leksik ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi, chunki bu so'zlar ko'chma ma'noga ega bo'ladi.

Frazeologiyaning asoschilaridan biri akademik V.V.Vinogradov ma'no birligi va darajasiga qarab, frazeologizmlarni uch guruhga bo'ladi [1,8]:

1. Phraseologische Zusammenbildungen (frazeologik chatishmalar)
2. Phraseologische Einheiten (frazeologik birliklar)
3. Phraseologische Verbindung (frazeologik birikmalar)

Bu guruhlar asosida semantik prinsip mavjud va shuning uchun ham buni semantik tasnif deb atash mumkin. V.V.Vinogradovning frazeologizmlarni semantik tasnifiga asoslanib nemis frazeologiyasida ham salmoqli izlanishlar olib borgan olimlar M.D.Stepanova va I.I.Chernisheva frazeologizmlarni funksional tamoyil asosida tasnif qilib ikki katta guruhga bo'ladi, ya'ni [1,9]:

1. Leksik birliklar (Lexikalische Einheiten)
2. Frazelogik bog'lanishlar (Phraseologische Fügungen)

Birinchi guruh nominativ funktsiyaga ega frazeologizmlarni o'z ichiga oladi. Masalan:

- „Schlüsse ziehen“ – „bir to'xtamga (yechimga) kelmoq“
- „in Frage kommen“ – „muhokama qilmoq“
- „in Erfahrung bringen“ – „bildirmoq, xabar qilmoq“

Ikkinchi guruh esa asl ma'noga ega bo'lgan frazeologizmlarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagi kichik turlarga bo'linadi: a) Idiomalar (Idiomen) – motivatsiyaga ega bo'lmagan frazeologik birikmalar. b) Motivatsiyaga ega bo'lgan frazeologik birikmalar (bildhaftmotivierte phraseologische Wortverbindungen). c) Juft so'zlar (Wortpaare). d) Maqollar (Sprichwörter). e) Matalar (Geflügelte Worte). f) Turg'un o'xshatishlar (stehende Vergleiche).

Bundan tashqari, nemis frazeologiyasini boshqacha tasniflashga urinishlar ham mavjud [1,9].

Maqol – narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi tilda keng ishlatiladigan iboradir. Matal so'zlovchining o'z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal aytilmoqchi bo'lgan fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi. Matal *“u axmok odam”* deyish o'rniga *“uning bir qaynovi kam”* deydi, *“ular bir biriga juda mos”* deyish o'rniga – *“ular bir olmaning ikki bo'lagi”* deb aytadi. Maqol bilan matal o'rtasida umumiylik ko'zga tashlanadi. Bu umumiylik shundan iboratki har ikkala kategoriya ham nutqni jonlantirish, jozibador va obrazli qilish, fikrni tayyor nutq qoliplari, formulalari bilan ifodalash, uni mazmundor qilishda ishlatiladi. Lekin shu bilan birga tugal fikrni o'zida ifodalagan maqollardan matallar jiddiy farq qiladi. Avvalo maqol zamirida xalq hikmati yotadi. *Dumheit und Stolz wachsen auf einem Holz* – Nodonlik va mag'rurlik bir yerda ko'karadi, demak mag'rurlik nodonlikdan kelib chiqadi, Aytuvchi axmoq bo'lsa, tinglovchi dono kerak-deydi, maqol. Binobarin axmoqqa qarshi eng oqilona javob- sukut qilishdir. Yuqoridagi maqolning mazmuni, hikmat ana shunda. Ko'rinadiki, bir qancha oddiy so'z bilan ta'bir qilinmaydigan chuqur axloqiy g'oya qisqa, ixcham bir qolip shakliga kirgan demak, shakl ixchamligi maqollarga xos ikkinchi belgidir. Maqollar tarkibidagi so'zlarning bir-biriga qofiyalanib kelishi va alliteratsiya qarama qarshi ma'noli so'zlarning birikishi ham maqollarning shakl xususiyatlariga xos belgilardandir. Masalan: *Wer die Wahl hat, hat die Qual - Tanlab tanlab tozisiga uchradi*. Ko'pgina maqollarga xos uchinchi belgi ularning majoziy ma'nosida ishlatilishidir: *Liebe ist blind -Sevgining ko'zi ko'r*. Yana bir misol: „Da liegt der Hund begraben.“ – bu ibora *“It shu yerga ko'milgan”* degan ma'noni bildiradi, lekin aslida muammoning asosiy sababini topganlikni anglatadi. Masalan, „Jetzt verstehe ich, warum das Projekt gescheitert ist – da liegt der Hund begraben!“ – „Endi tushundim, nima uchun loyiha muvaffaqiyatsiz tugadi – asosiy sabab shu yerda ekan!“

Maqol obrazli mazmunga ega bo'lgan gapdir. Uni sintaktik bo'laklarga ajratish mumkin. *Die Zunge hat kein Bein, schlägt aber manchem den Rücken ein -Tig yarasi tuzalar til yarasi tuzalmas* maqolni sintaktik bo'lib uni tahlil qilaylik. Bunda ega va kesim mavjud bo'lgan ikkita gap bor. Birinchi gap: *Die Zunge*–ega, *hat* kesim *kein Bein, schlägt* - kesim *aber manchem den Rücken ein* (tig' yarasi tuzalar –til yarasi –ega, tuzalar- kesim. Ikkinchi gap: til yarasi tuzalmas, til yarasi-ega, tuzalmas- kesim).

Demak, har bir maqolning mazmuni real voqelikdagi faktlar orqali sharhlansa, ulkan hajmdagi asarlar yaratilishi kabi nozik jihatlari mavjud. Har bir maqol kishiga izchil g'oyaviy yo'nalish beradi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologiya xalq og'zaki ijodining tilshunoslikda chuqur o'rganilayotgan muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, har bir til frazeologik tizimi orqali boyib boradi. Xalq maqollari va matallari o'tmishdan bizgacha yetib kelgan bo'lib, ular xalq hikmatining kuchini namoyon etuvchi vositalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Imyaminova „Nemis tili frazeologiyasi Toshkent“-2011.
2. Sh.Ashurova “Maqollarda frazeologik kommunikasiya hodisasi” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Samarqand-2011.
3. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov “Hikmatnoma” Toshkent-1990

4. M.Umarxo'jayev "Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi", Andijon 2010
5. G.Z.Permjakov 300 allgemeingebräuchliche russische Sprichwörter und sprichwörtliche Redensarten. Moskau, VEB Enzyklopädie Leipzig, 1985.
6. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining qisqa etimologik lug'ati. – T., 2003. – 485 b.
7. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T., 1978. – 465 b.
8. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – C. 4-9.
9. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022.– T. 3. – №. 4. – C. 1-6.
Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1325>